
MAHALLALARDA MUSTAQILLIK SHUKUHI

Shu kunlarda Toshloq tumanida ham Mustaqilligimizning 32 yillik bayram tadbirlari bo'lib o'tmoqda. Ayniqsa, mahallalarda bayram shukuhi o'zgacha namoyon bo'lmoqda.

Xonariq MFYdagi Madaniyat markazida bo'lib o'tgan tadbirda mahalla ahli hamda ko'plab yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar eng ulug' va eng aziz bayramimizning ahamiyati, bugun mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari haqida so'z yuritdilar.

Bayram tadbirida 2023-2024 o'quv yilida Respublikamizning bir qator universitetlariga talabalikka qabul qilingan mahalla yoshlarining 32 nafari esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Ularning ota-onalariga tashakkurnomalar topshirildi.

2023-08-28 08:27:16